

O‘TKIR HOSHIMOVNING “IKKI ESHIK ORASI” ROMANIDA XALQONA TIL VA BIRLIKLARI IBORALARINING INGLIZ TILIGA TARJIMASIDAGI SAQLANISH STRATEGIYALARI

Mullajonova Gulira'no Maxamadjon qizi

1- bosqich magistrant talaba, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Abidova Zilola Xabibullayevna

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti PhD , katta oqituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘tkir Hoshimovning “**Ikki eshik orasi**” romanida qo‘llangan xalqona til birliklari, milliy iboralar va ularning ingliz tiliga tarjima qilinish jarayonida saqlanish strategiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda asardagi maqol, matal, frazeologik birliklar hamda og‘zaki nutqqa xos ifodalar misollar asosida ko‘rib chiqilib, ularni ingliz tiliga tarjima qilishda qo‘llaniladigan asosiy usullar — ekvivalent tarjima, izohli tarjima, moslashtirish va madaniy adaptatsiya kabi strategiyalar yoritiladi. Xalqona tilning milliy-madaniy xususiyatlarini tarjimada imkon qadar saqlab qolish masalasi muhim jihat sifatida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar

xalqona til, frazeologik birliklar, badiiy tarjima, tarjima strategiyalari, milliy kolorit, ingliz tili, O‘tkir Hoshimov, “Ikki eshik orasi”.

Kirish qismi: O‘zbek adabiyoti taraqqiyotida xalqona til, milliy ruh va madaniy qadriyatlarni badiiy asarlarda aks ettirish muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, badiiy asarlarda qo‘llanilgan xalqona iboralar, maqol va matallar, frazeologik birliklar millatning dunyoqarashi, turmush tarzi hamda madaniy an‘analarini o‘zida mujassam etadi. Shu jihatdan, O‘tkir Hoshimov ijodi o‘zbek adabiyotida xalqona ruhni, milliy qadriyatlarni va oddiy xalq hayotini realistik tarzda aks ettirgani bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Yozuvchining Ikki eshik orasi romani ham o‘zining badiiy qimmatini, hayotiy voqealari va xalqona tilga boyligi bilan ajralib turadi.

Mazkur romanda xalq og‘zaki nutqiga xos bo‘lgan iboralar, maqol va matallar, turli frazeologik birliklar keng qo‘llangan bo‘lib, ular asarning badiiy-estetik ta’sirchanligini oshirish bilan birga milliy koloritni ham ifodalaydi. Biroq bunday til birliklarini boshqa tilga, xususan ingliz tiliga tarjima qilish jarayoni tarjimon oldiga muayyan murakkab vazifalarni qo‘yadi. Chunki har bir til o‘ziga xos madaniy, tarixiy va ijtimoiy xususiyatlarga ega bo‘lib, xalqona iboralar ko‘pincha aynan shu milliy muhit bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli ularni tarjima qilish jarayonida nafaqat leksik ma’no, balki madaniy mazmuni ham to‘g‘ri yetkazish muhim hisoblanadi.

Tarjimashunoslik nazariyasida bunday birliklarni tarjima qilishda turli strategiyalar - ekvivalent tarjima, izohli tarjima, semantik moslashtirish, madaniy adaptatsiya kabi usullar qo‘llaniladi. Ushbu strategiyalar asardagi milliy ruhni saqlab qolish hamda o‘quvchiga asl matn mazmunini to‘laqonli yetkazishga xizmat qiladi. Ayniqsa, badiiy tarjimada xalqona iboralar va frazeologik birliklarning to‘g‘ri tarjima qilinishi asarning badiiy qiymatini saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

Mazkur maqolaning maqsadi - O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanida qo‘llanilgan xalqona til birliklari va iboralarning ingliz tiliga tarjima jarayonida saqlanish strategiyalarini tahlil qilish hamda ularning badiiy tarjimada qo‘llanish xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot jarayonida romandagi xalqona iboralar, frazeologik birliklar va maqollar misolida tarjima usullari o‘rganilib, ularning milliy-madaniy mazmunni yetkazishdagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Maqolaning dolzarbligi Hozirgi globallashuv jarayonida turli xalqlarning adabiy merosini boshqa tillarga tarjima qilish va uni xalqaro o‘quvchilarga yetkazish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bunda badiiy asarlarda uchraydigan xalqona til birliklari, maqol va matallar hamda frazeologik iboralarni to‘g‘ri tarjima qilish muhim ilmiy va amaliy masalalardan biri hisoblanadi. Chunki bunday birliklar millatning tarixiy tajribasi, madaniy qadriyatlarini va dunyoqarashini o‘zida aks ettiradi. O‘zbek adabiyotining yirik namoyandalardan biri bo‘lgan O‘tkir Hoshimov asarlarida xalq hayoti, milliy mentalitet va xalqona nutq uslubi keng ifodalangan. Ayniqsa, Ikki eshik orasi romanida xalqona iboralar, frazeologik birliklar va og‘zaki nutqqa xos ifodalar ko‘p uchraydi. Ushbu birliklar asarning badiiy ta’sirchanligini oshiradi hamda milliy koloritni namoyon etadi. Shu sababli ularni ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida asl ma’no va madaniy mazmunni saqlab qolish masalasi dolzarb hisoblanadi.

Tarjimashunoslik nuqtai nazaridan xalqona iboralarni tarjima qilish jarayonida turli strategiyalarni qo‘llash zarur bo‘ladi. Bunday strategiyalar yordamida asarning milliy ruhini, badiiy-estetik qiymatini va mazmunini boshqa til o‘quvchisiga ham to‘g‘ri yetkazish mumkin. Shu jihatdan, “Ikki eshik orasi” romanidagi xalqona til birliklarini ingliz tiliga tarjima qilishda qo‘llaniladigan strategiyalarni o‘rganish va tahlil qilish tarjimashunoslik hamda badiiy tarjima nazariyasi uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Tahlillar qismi: Badiiy asarlarda xalqona iboralar, maqol va frazeologik birliklar muallif uslubini ochib berishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, O‘tkir Hoshimovning Ikki eshik orasi romanida xalqona nutq elementlari keng qo‘llangan. Ushbu birliklar asarning badiiy ifodadorligini oshirib, milliy muhit va xalq ruhiyatini ko‘rsatib beradi. Shu sababli ularni ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida nafaqat so‘z ma’nosi, balki iboraning madaniy va emotsional mazmunini ham saqlash muhimdir.

Masalan, romanda uchraydigan “*ko‘ngli joyiga tushdi*” iborasi o‘zbek tilida insonning tinchlanishi yoki xotirjam bo‘lishini anglatadi. Ingliz tiliga tarjimada bu ibora “*felt relieved*” yoki “*felt at ease*” tarzida berilishi mumkin. Bu yerda ibora so‘zma-so‘z tarjima qilinmaydi, balki uning umumiy ma’nosiga mos keluvchi ekvivalent tanlanadi. Yana bir misol sifatida “*boshini qotirmoq*” iborasini ko‘rib chiqish mumkin. Bu ibora ingliz tilida “*to puzzle someone*” yoki “*to confuse someone*” tarzida tarjima qilinadi. Bu holatda tarjimon iboraning ma’nosini saqlab qolgan holda semantik moslikdan foydalanadi.

Romanda xalq og‘zaki nutqiga xos iboralar ham uchraydi. Masalan, “*yuragi orqasiga tortib ketdi*” iborasi qo‘rquv yoki kuchli hayajonni bildiradi. Ingliz tilida bu ibora “*his heart sank*” yoki “*he was terribly frightened*” tarzida berilishi mumkin bo‘lsa “*ko‘ngliga tugib qo‘ymoq*” iborasi o‘zbek tilida biror narsani eslab qolish yoki ichida saqlab yurishni anglatadi. Ingliz tilida u “*to keep something in mind*” yoki “*to bear something in mind*” tarzida tarjima qilinadi. Maqol va matallar tarjimasida esa ko‘pincha madaniy ekvivalentlardan foydalaniladi. Masalan:

“Yetti o‘lchab, bir kes” → “*Measure seven times, cut once*”

“Ko‘p gap — eshakka yuk” → “*Too much talk brings trouble*” yoki “*Actions speak louder than words*”

“Birlik bor joyda tiriklik bor” → “*Unity is strength*”

Bundan tashqari, ayrim iboralar ingliz tilida boshqa obraz orqali ifodalanadi. Masalan:

“Ko‘z qorachig‘idek asramoq” → “*to cherish something dearly*”

“Boshiga yetmoq” → “*to ruin someone*” yoki “*to destroy someone’s life*”

“Jon kuydirmoq” → “*to care deeply*” yoki “*to worry greatly about something*”

Ushbu misollar shuni ko‘rsatadiki, xalqona iboralarni tarjima qilish jarayonida tarjimon turli strategiyalardan foydalanadi: ekvivalent tarjima, semantik moslashtirish, madaniy ekvivalent topish hamda izohli tarjima. Bu usullar orqali asardagi milliy ruh, badiiy ifoda va mazmun boshqa til o‘quvchisiga ham imkon qadar to‘liq yetkaziladi.

Natijalar qismi: Olib borilgan tahlillar natijasida O‘tkir Hoshimovning Ikki eshik orasi romanida xalqona til birliklari, maqol va matallar hamda frazeologik iboralar keng qo‘llanilgani aniqlandi. Ushbu birliklar asarning badiiy-estetik qiymatini oshirib, milliy muhit va xalq ruhiyatini ifodalashda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqot jarayonida xalqona iboralarni ingliz tiliga tarjima qilishda bir nechta asosiy strategiyalar samarali ekani kuzatildi. Jumladan, semantik ekvivalent orqali tarjima qilish iboraning umumiy ma‘nosini saqlab qolishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ayrim iboralarni tarjima qilishda madaniy ekvivalentlardan foydalanish asarning mazmunini ingliz tilidagi o‘quvchi uchun tushunarliroq qiladi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, barcha xalqona iboralarni so‘zma-so‘z tarjima qilish har doim ham to‘g‘ri natija bermaydi. Ko‘plab hollarda iboraning ma‘nosini to‘liq yetkazish uchun semantik moslashtirish yoki izohli tarjima usullaridan foydalanish zarur bo‘ladi. Ayniqsa, milliy mentalitet bilan bog‘liq iboralar tarjima jarayonida alohida e‘tibor talab qiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, xalqona iboralarni to‘g‘ri tarjima qilish badiiy asarning milliy koloritini saqlash va asarning estetik qiymatini boshqa til o‘quvchisiga yetkazishda muhim omil hisoblanadi. Shu sababli tarjimon nafaqat til bilimiga, balki madaniy va tarixiy kontekstga ham chuqur ega bo‘lishi zarur. Umuman olganda, olib borilgan tahlillar badiiy tarjimada xalqona til birliklarini to‘g‘ri talqin qilish va ularni ingliz tilida mos strategiyalar yordamida ifodalash muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatdi.

Xulosa qismi: Ushbu tadqiqot jarayonida O‘tkir Hoshimovning Ikki eshik orasi romanida qo‘llanilgan xalqona til birliklari, frazeologik iboralar hamda maqol va matallarning ingliz tiliga tarjima qilinish xususiyatlari tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, asarda xalqona nutq unsurlari keng qo‘llanilgan bo‘lib, ular asarning badiiy-estetik qiymatini oshirish bilan birga milliy koloritni ham namoyon etadi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, xalqona iboralarni tarjima qilish jarayonida so‘zma-so‘z tarjima har doim ham to‘g‘ri natija bermaydi. Bunday hollarda iboraning ma‘nosini to‘g‘ri yetkazish uchun semantik ekvivalentlardan foydalanish, madaniy moslashtirish hamda izohli tarjima kabi strategiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu usullar orqali asarning mazmuni va badiiy ifodasi ingliz tilidagi o‘quvchi uchun ham tushunarli tarzda yetkazilishi mumkin.

Badiiy tarjimada xalqona til birliklarini to‘g‘ri talqin qilish tarjimonning nafaqat til bilimiga, balki madaniy va tarixiy kontekstni chuqur anglashiga ham bog‘liq ekanligi aniqlandi. Chunki xalqona iboralar ko‘pincha millatning mentaliteti va madaniy qadriyatlarini bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot xalqona iboralarni ingliz tiliga tarjima qilishda turli strategiyalarni qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi hamda badiiy tarjimada milliy koloritni saqlab qolish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi.

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 496 b.
2. Abdullayeva, M. "NASRIY TARJIMANING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI (XX asr oxiri XXI asr boshlarida ingliz tilidan bevosita tarjimalar misolida)." *Tadbirkorlik va pedagogika Ilmiy-uslubiy jurnal*. ISSN: 2181-2659.
3. Peter Newmark. A Textbook of Translation. – New York: Prentice Hall International, 1988. – 292 p.
4. Mona Baker. In Other Words: A Coursebook on Translation. – London: Routledge, 2011. – 352 p.
5. Lawrence Venuti. The Translator's Invisibility: A History of Translation. – London: Routledge, 2008. – 353 p.
6. Abidova Zilola Xabibullayevna. INTERTEXTUALITY AND POLYPHONY IN "AND THE MOUNTAINS ECHOED". (2025). *International Journal of Artificial Intelligence*, 5(11), 1666-1671. <https://www.academicpublishers.org/journals/index.php/ijai/article/view/8023>
7. Khabibullayeva, Makhliyo Erkinovna, Zilola Xabibullayevna Abidova, Nodira Davronovna Karimova, Muzaffar Mukhtarovich Khodjakhanov, Markhabo Raxmonkulovna Abdullayeva, and Dilshoda Mubarakova Abduraxmatovna. "EXPRESSION OF PROVERBS AND PHRASE IN THE ENGLISH TRANSLATION OF UZBEK WORKS." *Lex Localis* 23, no. S6 (2025): 1414-1421.